

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 22 234,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,7 % ga yetdi.

*Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

**Yanvar-iyun oylarida YAHM o'sish sur'ati va deflyator indeksi dinamikasi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



■ O'sish sur'ati ■ Deflyator indeksi

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

		Mld. so‘m		<i>O‘sish sur’atlari, o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2021- yil	2022- yil	
	<b>I. YAHM</b>	<b>19 178,4</b>	<b>22 234,2</b>	<b>104,6</b>

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	18 281,1	21 161,6	104,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	897,3	1 072,6	109,7

	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>18 281,1</b>	<b>21 161,6</b>	<b>104,4</b>
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	6 623,6	7 597,1	103,5


	<b>Sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)</b>	<b>4 782,7</b>	<b>5 466,3</b>	<b>105,9</b>
	sanoat	3 588,9	3 975,9	105,6

	qurilish	1 193,8	1 490,4	106,8
	<b>Xizmatlar</b>	<b>6 874,8</b>	<b>8 098,2</b>	<b>104,2</b>

	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 253,2	1 478,7	105,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	984,8	1 167,3	112,9

	boshqa xizmat tarmoqlari	4 636,8	5 452,2	102,0


**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha mutlaq o’sish sur’atlari**  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o’sish sur’atlari YAHM o’sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi tarmog‘ining o’sish sur’ati 103,5 %, (YAHM tarkibidagi ulushi - 35,9 %), sanoat - 105,6 % (18,8 %), qurilish - 106,8 % (7,0 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 105,2 % (7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa - 112,9 % (5,5 %) va boshqa xizmat tarmoqlari – 102,0 % (25,8 %) ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 494,6 ming so‘mni tashkil etdi va o’sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga 102,4 %ni tashkil etdi.

**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**



**Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi**

(Yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan % da)



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,8 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 35,9 % ni, sanoat tarmog'i 18,8 % ni, qurilish 7,0 % ni va xizmatlar sohasi 38,3 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**


		<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>
	<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,3	95,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,7	4,8
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	36,2	35,9
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,1</b>	<b>25,8</b>
	sanoat	19,6	18,8
	qurilish	6,5	7,0
<b>Xizmatlar</b>		<b>37,7</b>	<b>38,3</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,9	7,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	5,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	25,4	25,8

**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi**  
*(jamiga nisbatan % da)*

**2021- yil**



**2022- yil**




Yuqorida keltirilgan diagrammada sanoat sohasining YAHM tarkibidagi ulushi 2021- yildagi 19,6 % dan 2022- yilda 18,8 % ga va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligini ulushi 2021- yilda 36,2 % dan 2022- yilda 35,9 %ga kamayganligini ko'rish mumkin. Qurilish ulushi 6,5 % dan 2022- yilda 7,0 % ga oshdi.

Xizmatlar sohasining YAHM tarkibidagi ulushi esa 37,7 % dan 38,3 % ga ko‘paydi. Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 7,0 % ni (2021-yil yanvar-iyun – 6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 5,5 %ni (5,4 %), boshqa xizmat tarmoqlari – 25,8 %ni (25,4 %) tashkil etdi.



YAHM ishlab chiqarish umumiyligi hajmining 65,5 %i kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2021- yil yanvar-iyun oylarida 65,6 %ni tashkil qilgan.

### 2022- yil yanvar-iyun oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yil yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2021- yil yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 110,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari qurilishda – 116,9 % va xizmatlar sohasida – 113,1 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududdida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga (YAHM)** muayyan davrda joriy narxlardagi YAHM hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ)** ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** - tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** - davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**YAHM fizik hajm indeksi (o‘sish sur’ati)** doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAHMni (real YAHM), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri YAHMga nisbati orqali hisoblanadi.

**YAHM deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (joriy narxlardagi hisobot davri YAHM) real YAHMga nisbati orqali hisoblanadi.